

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI FRAZEOLOGIK QATLAMIDA RANG KOMPONENTLI FRAZEOLOGIZMLARNING O'RNI

Madraximova Aziza Ergash qizi

Urganch davlat universiteti Lingvistika

(ingliz tili) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

azizamadraximova0404@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillari frazeologik sathi lingvopragmatik jihatdan tahlil qilinib, ikkala tilga xos xususiyatlar haqida fikr yuritiladi. Maqolada rang-tus komponentli iboralarga misollar keltirilgan bo'lib, ularning tarjimasi va ta'rifi bilan birgalikda ibora tarkibidagi rang komponenti qanday ramzni ifodalab kelishi haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: frazeologik birlik, rang, ramz, lingvopragmatik tahlil, lingvokulturologiya, frazeologik qatlam

Ranglar barcha tillar va madaniyatlarda katta ahamiyatiga ega. Ranglar barcha soha vakillarining doimiy e'tibor markazida turadigan elementlardan biridir. Psixologiyadan tortib, gastronomiya, moda va dizayn, arxitektura sohalarida ham ranglar uyg'unligi, ranglarning inson ongiga ta'siri kabi masalalar hech qachon dolzarbligini yo'qotmaydi. Har bir rang atrofimizdagi predmetlarni tasvirlashdan tashqari, ma'lum bir konseptni ifodalash uchun kundalik hayotda keng qo'llaniladigan maqollar, iboralar va boshqa frazeologik birliklarning ajralmas komponentiga aylangan. Lingvokulturologik jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, bir rang bir necha tillarda o'xshash ma'noni yoxud butunlay qarama-qarshi tushunchani ifodalashi mumkin. Ranglarning bu kabi xususiyatlari har bir xalqning etnografiyasi, madaniyati, dini, urf-odatları hamda iqlimining qandayligiga borib taqaladi.

Ingliz tili rang komponentli frazeologik birliklarga boyligi bilan ajralib turadi. Ularning ba'zilar eski ingliz tili davridan buyon mavjud bo'lsa, ayrimlari badiiy asarlar, ommaviy axborot vositalari hamda fan va texnologiyalar taraqqiy etishi natijasida paydo bo'lgan. Ingliz tilida frazeologik birliklar komponenti sifatida eng ko'p uchraydigan ranglar qizil, yashil, moviy, oq va qora ranglar hisoblanadi. Mazkur ranglar bir qancha frazeologizmlarda o'xshash ma'nolarda takrorlanishi kuzatiladi. Misol uchun, qizil rang qahr-g'azab, ta'qiq kabi negativ konnotatsiyalarni ifodalaydi. Yashil esa aksincha, tabiat, osoyishtalik kabi pozitiv konnotatsiyalarda ko'proq uchraydi. Misol uchun, ingliz tilidagi green thumb idiomasi qo'li gul bog'bon manosini bildiradi. Green flag esa xavsiz, yoki ijobiy sifat ma'nolarini beradi. Bugungi kunda eng ko'p qo'llanilayotgan green economy, green energy kabi frazeologik birliklarda yashil rang qayta tiklanadigan hamda atrof-muhitga zararsiz degan ma'noni ifodalaydi.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, yashil salbiy sifatlarni namoyon qiladigan holatlarda ham uchrashi mumkin. Bunga misol qilib green with envy iborasini keltirish mumkin. Mazkur idioma Vilyam Shekspirning Otello dramasidan olingan bo'lib, Otelloning rashkdan ko'karib ketishiga ishora qiladi. Lekin bu ibora bugungi kunda hasaddan ichi yonmoq ma'nosida ham qo'llaniladi. Xuddi shunday, red ham ba'zan ijobiy, ba'zan esa salbiy ma'no beruvchi rang bo'lishi mumkin. Masalan, red tape iborasi byurokratiyaning haddan oshishi, red flag esa xavf yoki biror salbiy sifat mavjudligini ifodalaydi. Red carpet treatment (biror kimga katta hurmat-ikrom ko'rsatish), red letter day (muhim va esda qolarli kun) kabi iboralarda esa qizil rang ijobiy ma'no kasb etadi.

Qora rang aksariyat madaniyatlarda salbiy ma'no beruvchi rang hisoblanadi. Ingliz tilidagi black sheep iborasi bunga yaqqol misol bo'ladi. Mazkur ibora oila yoki jamoani o'z qilmishlari bilan hijolatga qo'yadigan insonga nisbatan ishlatiladi. O'zbek tilidagi frazeologik birliklarda ham qora rang odatda salbiy bo'yoq beruvchi so'z sifatida qo'llaniladi. Qozonga yaqin yursang qorasi yuqadi, qora ro'yhat, qora ishchi, oq-qorani tanimoq kabi frazeologik birliklarda qora rang salbiy ma'no beruvchi element bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, black market iborasi har ikkala tilda ham birday ta'qiqlangan narsalar sotiladigan bozor ma'nosini beradi. Qora rang salbiy bo'yoq beruvchi element sifatida qaralgan bir paytda, oq rang ezgulik, to'g'rilik ma'nolarini beradi. White lie (zararsiz yolg'on), white magic (yaxshilik yo'lida qilingan sehr-jodu) kabi iboralar fikrimizga yorqin dalil bo'la oladi.

Moviy rang o'zbek madaniyatida tinchlik, osoyishtalik ramzi hisoblanishi barchamizga ma'lum. Moviy osmon kabi iboralar kundalik hayotimizda tez-tez qo'llaniladi. Vaholanki, ingliz tilida moviy rang g'amginlik va tushkunlik kabi salbiy hissiyotlar timsoli sifatida gavdalanadi. To feel blue (xafa yoki tushkun kayfiyatda bo'lmoq), baby blues (tug'ruqdan keyingi depressiya) singari iboralar yuqoridagi fikrimizni qo'llab-quvvatlaydi.

O'zbek tilida ham rang-tus komponentli iboralarni kundalik nutqimizda tez-tez uchratib turamiz. Qozonga yaqin yursang qorasi yuqadi iborasida qora rang insonga xos salbiy xislatlar ramzi sifatida ishlatilgan. Oq-qorani tanimoq iborasida biryo'la ikkita rang ifodalovchi leksema qatnashgan bo'lib, ranglar o'zbek madaniyatiga xos bo'lgan to'g'ri va noto'g'ri, yaxshi va yomon qilmishlarni oq va qora rangga muqoyasa qilgan. Qizil qor yoqqanda iborasi tarkibidagi qizil leksemasi odatda qorni tasvirlash uchun ishlatilmaydi. Qor qizil rangda yog'masligini hisobga oladigan bo'lsak, ibora biror ishning qizil qor yoqqanda sodir bo'lishi deganda o'sha ishning deyarli hech qachon sodir bo'lmasligini nazarda tutadi.

Frazeologik qatlamning boyishiga ko'plab unsurlar ta'sir ko'rsatadi. Shulardan biri adabiyot sohasi bo'lib, ingliz tilidagi bir qancha iboralar mashhur asarlardan olingan jumlaning ommalashuvidan kelib chiqadi. Ingliz tilida Shekspir asarlaridan olingan iboralar talaygina. Shulardan yashil rang komponentli green with envy, green

about the gills, green-eyed monster kabi shekspirizmlar eng keng tarqalgan frazeologik birliklar sirasiga kiradi.

Yana bir e'tiborga loyiq ibora red herring idiomasi bo'lib, u asosiy masaladan chalg'ituvchi narsa degan ma'noni bildiradi. Uning kelib chiqishi 1807-yilda ingliz jurnalisti Vilyam Korbetning maqolasiga borib taqaladi. Maqolada jurnalist yoshlik davrlarini eslar ekan, yovvoyi quyonlarni tutishni qiyinlashtirish va itlarni chalg'itish uchun dudlangan baliqdan foydalanilganini yozadi. Hikoyada baliqning hidi ovchi itlar quyonlarning isini olishiga to'sqinlik qilgani aytilgan bo'lsa, bugungi kunda ushbu ibora odamni chalg'itib qo'yadigan masalalar haqida gapirganda ishlatiladi.

Xulosa qilib aytganda, rang-tusni ifodalovchi frazeologik birliklar ingliz va o'zbek tili frazeologik qatlamida muhim o'rin tutadi. Iboralar tarkibidagi rang elementlari iboralarning ma'nosini yanada boyishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Cambridge Advanced Learner's Dictionary
2. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati
3. <https://idiominsider.com/idioms-for-green/>
4. <https://maqollar.uz/cards/7942>